


# PEDAGOGIK MAHORAT

MS  
2022



Jo'rabej YARASHEV, Xurshid AXROROV. Musiqa ta'limi o'qitish metodikasini takomillashtirishda aktdan foydalanish imkoniyatlari (sibelius dasturi misolida).....	235
M. SAMIYEVA. "Buxoro ijrochilik uslubi" - o'smir-o'quvchilar axloqiy sifatlarini rivojlantirish omili sifatida.....	237
O'. AVLIYOQULOV. Musiqa madaniyati ta'limida musiqiy savodxonlik faoliyatidan foydalanish imkoniyatlari .....	239
Davron RO'ZIYEV, Shavkat QODIROV, Dilovar QODIROVA. Sharq allomalarining inson ma'naviyatida musiqaning o'rni haqidagi qarashlari .....	241
Dilorom SAIDOVA, Davron RO'ZIYEV. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy ko'nikmalarini shakllantirish .....	244
I.M.RAXMANOVA, Davron RO'ZIYEV. Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	248
Munisa JO'RAYEVA, Davron RO'ZIYEV. O'zbekistonda fortepiano ijrochiligi san'ati .....	251
Hojibuv RAHMONOVA, Sanoqul DO'STOV. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri haqidagi sharq mutafakkirlarining fikrlari .....	254
Sitora XAMDAMOVA. O'zbek xalq qo'shiqlarining g'oyaviy badiiy xususiyatlari .....	259
Islom AXTAMOV. Maktab musiqa madaniyati darslarida maqom namunalarini o'rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan .....	261
Ulug'bek MIRSHAYEV, Dilora MIRSHAYEVA. Boshlangich sinf o'quvchilarida musiqiy - ritmik harakatlarni shakllantirish .....	263
Dilshoda RUSTAMOVA, F.G. Nurullayev. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa tarbiyasi .....	265
Nasiba HAZRATOVA, F.G. Nurullayev. Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarning ongini va milliy tafakkurni o'stirish omillari .....	268
Nodira NURULLAEVA, Sanoqul DO'STOV. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda xalq qo'shiqlarining ahamiyati va tutgan o'rni .....	271
Nozima NURULLAYEVA. Yoshlarni tarbiyalashda musiqiy tasavvurlarning xususiyatlari .....	273
Nigora NURULLAYEVA. Buxoro folklor qo'shiqlari xalqning ijodiy ma'suli sifatida .....	275
Boburshox NURULLAYEV, Sanoqul DO'STOV. Folklor qo'shiqlarini tanlab olishga qo'yiladigan metodik talablar .....	278
Mehrinisho NURULLAEVA. Yoshlarda milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiyaning ahamiyati .....	281
O'ktam IBODOV. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqaga bo'lgan ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish .....	283
Jo'rabej YARASHEV, Dilnavoz MURATOVA. O'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ovozini tarbiyalash va rivojlantirish usullari .....	286
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. Buxoro shashmaqomi ustuni .....	289
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. O'zbek katta ashulasining jahon miqyosidagi o'rni .....	292
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji .....	294
Farrux NURULLAYEV, Nodira NURULLAYEVA. O'zbek xalq qo'shiqlarining uzlucksiz ta'limdagi tutgan o'rni va tarbiyaviy ahamiyati .....	297

**Nasiba HAZRATOVA**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti  
musiqa ta'lifi kafedrasini I bosqich magistri

**F.G. Nurullayev**

Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

---

## MUSIQA DARSLARI ORQALI O'QUVCHI YOSHLARNING ONGINI VA MILLIY TAFAKKURNI O'STIRISH OMILLARI

---

*Maqolada o'quvchilarda ong va milliy tafakkurini o'stirish jarayonini turlicha shakllantirish, yanada rivojlantrish uchun musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariiga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kirishi aytilgan. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalgaga oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiya, qadriyat, ma'naviy, fiziologik, an'anaviy ijro uslublari, vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do'stlarga sadoqat, axloq, kompyuter, elektron doska va videopraektor, metodik, sho'x, quvnoq, muayyan raqs, parda tuzugi, multimedia, shakl, tavsiyot, subektiv, obektiv, axborot, dastur, qo'llanma, darslik, ideal, falsafaviy, psixologik, strategiya.

В статье рассматриваются развитие воспитанников средствами музыкальных уроков и наращивание умственных способностей юнных дарований в знакомстве национальной культуры. Обсуждаются структура личности, место детской литературы у младших школьников, целенаправленные педагогические процессы формирования и интеграции нравственных качеств.

**Ключевые слова:** инновационная технология, национальное достоинство, народные песни, культура, музыка, песня, любовь к труду, чувство, интеллект, литература, дитя, развитие.

*The article says that in addition to music lessons, music lessons, extracurricular and extracurricular activities include clubs, holidays, and entertainment evenings to further develop the process of developing students' consciousness and national thinking. This is an important tool for the effective implementation of the education of students in all respects.*

**Key words:** innovative technology, value, spiritual, physiological, traditional methods of performance, patriotism, love of work, trust in people, loyalty to friends, ethics, computer, electronic board and video projector, methodical, fun, cheerful, specific dance, curtain arrangement, multimedia, form, detail, subjective, objective, information, program, manual, textbook, ideal, philosophical, psychological, strategy.

**Kirish.** Inson ongi, tafakkuri, tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi insonlarning milliy tafakkurini o'stirish va tarbiyalashga bog'liq.

Tarbiya bu shaxsni ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlarga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga mutazam ravishda ta'sir etib borishdan iborat bo'lgan uzluksiz jarayon. Shunday ekan, yoshlarga ta'lim tarbiya berish, ularni mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida safarbar etish muhim misoldir. Mustaqil Respublikamizda ma'naviyat va madaniyyat masalalariga alohida etibor berib kelinmoqda. Bunda ma'naviyat va ma'rifat gazetasi markazi xalqaro madaniy – ma'rifiy aloqalar majmuasi kabi ijodiy muassasalarining tashkil etilishi bastakorlar uyushmasi va jamiyatdagi ijodiy siljishlar "O'zbekiston vatanim manim" nomi bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan an'anaviy tanlovlardan madaniy ma'rifiy islohotlarni amalgaga oshirishda metodlar qo'llanmoqda.

**Asosiy qism.** Qadimiy va boy tajribaga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati istiqbolini amalgaga oshirish ta'lim tarbiya ishlari bilan shug'ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta'kidlash joizdir. Bu maktablarda musiqa ta'limi-tarbiyasi bevosita oshirib borilgan. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan.

Musiqaning so'z san'ati va adabiyoti bilan uzviy holda bog'lab o'rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo'shadi. Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasini oshirish, albatta, ta'lim metodikasiga bevosita bog'liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo'lib, o'zining mustaqil o'rniga ega. "Musiqa madaniyati" darslari tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini

tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning kuylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika fiziologiya tadqiqotlariga taniladi. Musiqa tarbiyasi metodikasining mohiyati musiqa san'ati hamda madaniyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega.

**Muhokamalar va natijalar.** Musiqa darslarida asarni ongли idrok etish, uning mazmunini ochishda va o'quvchilarda musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi emotsiyonal onglilik prinsipi uyg'unlashish ko'payishi orqali tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Ularning musiqaga qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O'quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlanirishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. "Musiqa madaniyati" darslari jarayoni ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. O'quvchilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. Uyda, albatta, tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o'ynaydi. "Musiqa madaniyati" darslarida o'quvchilarning ongi va milliy tafakkurini o'stirish jarayonida quyidagi muammolar mavjud jumladan:

- a) usullarning musiqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijro bog'liqligi;
- b) o'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi;
- c) mmusiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari;

e) o'quvchilarning milliy musiqamizga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.

O'quvchilarda ong va milliy tafakkurini o'stirish jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlanirish uchun musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'limgartibiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars yetakchi omil hisoblanadi. Chunki o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqa fani boshqa fanlardan o'zining badiyligi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi. Eng muhimi musiqa orqali bolalarning ongi, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim savyasini kengaytirib borishni egallaydi.

Bobokalonlarimizdan Abu Nasr al-Forobiyning ma'rifat parvarlik g'oyalar tizimida bola, shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning jamiyati qayd qilinib, "Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'limganda insonning ahvoli ne kechar edi" - deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali ibn Sinoning musiqiy ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Alloma mashhur "Tibbiyot qonunlari" kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allallahdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb yozgan edi.

**Xulosa.** Shunday qilib, olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita balki o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra alohida bir fan sifatida tadbiq etishga davrlar o'tib ularni tor fikrlarini ta'limgartibiyada tatbiq etilib, ta'kidlaganidek, ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo'ladi. Ta'limgartibiyada uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'limgartibiyasini ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi.

Bugungi kunda musiqa, ta'limgartibiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim. Musiqa ta'limgartibiyasining maqsadi va avlodni musiqa merosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat, buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlanirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta'limgartibiyasining asosiy vazifasidir.

**Adabiyotlar**

1. Nurullayev F.G. Bolalarining musiqiy ta’limi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110 – sonli buyrug‘iga asosan. Ro‘yxat olish raqami 110 -123.
2. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III. ISSN 2056-5852.
3. Азимов Б. Нравственное воспитание молодежи средствами народной музыки. ...дис.канд.п.н. -Т., 1991. -16 с.
4. Жанайдаров Ж. Патриотическое и интернациональное воспитание учащиеся молодежи средствами музыки. Автореф. ...дис.канд.пед.наук. -Т., 1991. -18 с.
5. Nurullayev F.G. Uzluksiz ta’lim tizimida Buxoro folklor qo’shiqlarini o‘rgatishning o‘rnvi va ahamiyati// O‘zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.-Toshkent. B.177-186.
6. Nurullayev F.G. Ommaviy madaniyatni yoshlar tarbiyasiga ta’siri// “Ta’lim jarayonida salomatlikni muhofaza qiluvchi muhitni yaratishning pedagogik xususiyatlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Buxoro, 2016. -B.267-270.